

Journal of Social Research in Uzbekistan SJIF 2023: 6.831**JOURNAL OF SOCIAL RESEARCH IN UZBEKISTAN**

journal homepage:
<https://topjournals.uz/index.php/jsru>

**SOCIO-PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF THE POSITION OF WOMENS IN THE NEW UZBEKISTAN**

Mokhira Sh. Jumaniyazova

Lecturer

*International Islamic Academy of Uzbekistan
Tashkent, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: Women, society, Uzbekistan, the country, the role of women.

Received: 20.03.23

Accepted: 22.03.23

Published: 24.03.23

Abstract: In this article, opinions about the importance of social reforms implemented in our country today and the role of women in the life of society were put forward. Also, several proposals were made to strengthen the social role of women in society and family. The social status of women was philosophically analyzed in the basis of these proposals, and information on the topic was widely used.

YANGI O'ZBEKİSTONDA XOTIN-QİZLAR MAVQEİNİNG İJTİMOİY-FALSAFIY TAHLİLİ

Moxira Sh. Jumaniyazova

O'qituvchi

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
Toshkent, O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Xotin-qizlar, jamiyat, O'zbekiston, mamlakat, ayollar roli.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Mamlakatimizda bugungi kunda amalga oshirilayotgan ijtimoiy islohotlarning ahamiyati va jamiyat hayotida ayollarning roli to‘g‘risida fikr-mulohazalar ilgari surildi. Shuningdek, jamiyatda va oilada xotin-qizlarning ijtimoiy rolini kuchaytirishga doir bir necha takliflar ham berib o‘tildi. Mazkur takliflar zamirida xotin-qizlarning ijtimoiy mavqeい falsafiy jihatdan tahlil etildi va mavzuga doir ma'lumotlardan ham keng foydalanildi.

СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ ПОЛОЖЕНИЯ ЖЕНЩИНЕ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ

Мохира Ш. Джуманиязова

преподаватель

Международная исламская академия Узбекистана

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Женщины, общество, Узбекистан, страна, роль женщины.

Аннотация: В данной статье были выдвинуты мнения о важности социальных реформ, проводимых в нашей стране сегодня и роли женщины в жизни общества. Также было внесено несколько предложений по усилению социальной роли женщины в обществе и семье. На основе этих предложений был философски проанализирован социальный статус женщины, широко использовалась информация по теме.

KIRISH

Bugungi zamnaviy jamiyatni kuzatar ekanmiz avvalo, biz shu jamiyatni tashkil etuvchi shaxslar va ularning o‘zaro munosabatlarini o‘rganishimiz g‘oyat muhimdir. Negaki, jamiyatning qaror topishi va rivojlanishi uni tashkil etuvchi shaxslarning faoliyatiga uzviy bog‘liqdir. Shuningdek, zamnaviy O‘zbekistonda ham jamiyatning ham o‘z faoliyat mexanizmi mavjud. Jamiyatning faoliyat mexanizmi deganda biz unda mavjud ijtimoiy munosabatlar va shaxslararo munosabatlarning strukturasi, jamiyatda umume’tirof etilgan demokratik qarashlarni nazarda tutamiz.

Shu o‘rinda, O‘zbekistonda jamiyatning barcha strukturasini yanada tizimli rivojlantirish maqsadida 2017-yil 7-fevralda O‘zbekistonni rivojlantirish Harakatlar strategiyasi qabul qilindi. Mazkur Harakatlar strategiyasi davlat va jamiyat bilan bog‘liq 5 xil yo‘nalishni yanada takomillashtirishni maqsad qilgan.Ushbu strategiyaning 4 yo‘nalishi, aynan ijtimoiy sohani takomillashtirish, xususan xotin-qizlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlashni ko‘zda tutadi hamda jamiyatda xotin-qizlar hayotini yanada yaxshilash, ularni ijtimoiy, siyosiy va huquqiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga, soha doirasida qator loyihalarni amalga oshirishga qaratilgan.

ASOSIY QISM

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning quyidagi fikrlarida ham xotin-qizlarning jamiyatdagi faoliyati naqadar muhim ahamiyat kasb etishini bilishimiz mumkin. “*Birinchi vazifa - biz uchun muqaddas bo‘lgan oila asoslarini yanada mustahkamlash. xonardonlarda tinchlik-xotirjamlik. axillik va o‘zaro hurmat muhitini yaratish ma’naviy-ma’rify ishlarni aniq mazmun bilan to‘ldirishdan iborat bo‘lmog‘i zarur. Ikkinci vazifa - ayollar o‘rtasida jinoyatchilik,. oilalarda ajralishlar*

ko ‘paygani, yoshlarning turli diniy-ekstremistik oqimlar va terroristik tashkilotlar ta’siriga tushishi kabi xalqimizga xos bo‘lmagan achchiq va nohush masalalar bilan bog‘liq.

Uchinchi vazifa - ayollarni ularga munosib mexnat bilan bandligini ta’minalash masalasidir. Ayollar uchun doimiy ish joylari yaratish borasidagi muhim masala bilan bir qatorda, oilaviy biznes, kasanachilik, hunarmandchilik, tomorqa xo‘jaligini keng rivojlantirish ishlari. [1]

Xususan, joriy yilning 31-oktabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Senatining Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo‘mitasi tomonidan Qonunchilik muammolari va parlament tadqiqotlari instituti, Oila va xotin-qizlar davlat qo‘mitasi hamda AQSH Taraqqiyot agentligining O‘zbekistondagi “Huquqiy islohotlar” dasturi bilan hamkorlikda Gender-huquqiy ekspertiza bo‘yicha amaliy qo‘llanma” taqdimotiga bag‘ishlangan davra suhabati o‘tkazildi. Mazkur davra suhabatida ham zamonaviy O‘zbekistonda ayollar faoliyatini har tomonlama rivojlantirish, gender tenglikni mustahkamlash borasidagi ishlar tahlil etildi.

Ayollarni e’zozlash va jamiyatda o‘z o‘rniga ega bo‘lishi nafaqat bugungi kunda, balki uzoq va yaqin tariximizda ham anchayin mashaqqatli jarayon bo‘lgan. Bunga asosiy sabab qilib ko‘rsatilgan vaj esa ularning jismonan erkaklarga qaraganda ojizaligi va ayollarni faqat ularning ehtiyojlarini qondiruvchi obyekt sifatida ko‘rishlari bo‘lgan. Bilamizki, ko‘pgina ilmiy va badiiy asarlarda ma’lum davr va undagi ijtimoiy-maishiy muammolar badiiylashtirilgan holda aks etadi. Ana shunday asarlarda ham xotin-qizlarga ko‘rsatilgan munosabat va ularning achchiq qismati aks etgan. Misol tariqasida g‘arbdagi ijtimoiy hayot haqida, undagi haqiqatlarni hikoya qiluvchi Lev Tolstoyning “Tirilish” asari yoki sharq, aynan Markaziy Osiyo bilan bog‘laydigan bo‘lsak, Cho‘lponning “Kecha va Kunduz”, Abdulla Qodiriyning “Mexrobdan chayon” asarlari ham o‘timish tariximizdagi xotin-qizlar bilan bog‘liq achchiq haqiqatlarni hikoya qiladi.

Bugungi zamonaviy jamiyatda texnika-texnologiya, inson tafakkurining yuqori sur’atlarda rivojlanayotganligi, bilan bir davrda hali-hanuz ayollarimiz bilan bog‘liq muammolar, gender zo‘ravonlikka uchrayotgan xotin-qizlarimiz to‘g‘risida ommaviy axborot vositalarida kunora eshitamiz va bu holat yana davom etayotganini kuzatmoqdamiz.

Albatta, bu kabi holatlarni sodir bo‘lishida sabab qilib faqatgina erkaklarda deb hisoblashimiz noto‘g‘ri, negaki xotin-qizlarimiz bugun o‘zlarini shu holatni qabul qilishmoqda, ular yashayotgan muhit shuni taqozo qilmoqda. Ayollarda ilmining yetishmasligi, oson hayotga intilish, o‘zini faqatgina ayol jinsiga mansub ekanligi, vazifasi faqat erkaklarni ehtiyojini qondiruvchi deb hisoblashi ham xotin-qizlarning bugungi gender zo‘ravonlik bilan bog‘liq muammolarining kelib chiqishiga zamin yaratmoqda desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Har bir fikrni berishimizda albatta, tarixga yuzlanmaslikning iloji yo‘q, chunki bugun biz bilan sodir bo‘layotgan voqeа-hodisalarga yechim izlashda tarixiy tajriba juda katta yordam beradi.

Insonning jamiyatda o‘z o‘rniga ega bo‘lishi, uning baxtli bo‘lishi va uni his qila olishi bilan chambarchas bog‘liqdir.

Baxt qadimgi davrda evdemonizm falsafasining asosiy tushunchasi bo‘lgan. Uning vakillari baxtga hayotning asosiy maqsadi, shod-hurram bo‘lishining eng oliv ko‘rinishi sifatida qaraganlar. Aristotel, Epikur, Diogenlar shunday tushungan. Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Sa’diy, Navoiy kabi sharq olimlari va mutafakkirlar ijodida bu mavzu muhim o‘rin egallagan. Zamonaviy o‘zbek adabiyotida ham e’tibor berilmoqda.[4]

Demak baxt tushunchasi azal-azaldan insonlar hayotining anglashlarida asosiy mezon bo‘la olgan, ya’niki inson o‘zini qanchalik baxtli hisoblasa shunchalik hayotni yaxshiroq anglagan yoki aksincha baxtsizlik, uning hayotini yomon ekanligini begilab bergan.

Ayollarning jamiyatda o‘z o‘rinlarini topa olishlari va hayotlarini to‘g‘ri shakllantirishlari, ularning baxtli yoki baxtsiz ekanliklari bilan uzviy bog‘liqdir.

Xususan, jadid allomasi Abdurauf Fitratning o‘sha davrda ayollarga qilingan munosabat to‘g‘risdagи fikrlari ham aynan bizning tahlilarimiz nechog‘lik to‘g‘ri ekanligini yana bir karra isbotlaydi.

Mamlakatimizdagi xotinlar har daqiqada qanchadan-qancha tahqir va jafolarga duchor bo‘lib yashamoqdalar. Biz turkistonliklar o‘z xotinlarimizni odamiyat doirasidan tashqarida deb o‘ylaymiz va bechoralarga odamga qilgandek muomila qilmaymiz. Ko‘p holatda, hayvonlarning holiga yuragimiz achishadi. Ammo ayollarning parishon hollariga muruvvatimiz yetmaydi. Xotinlarimizni marhamatga sazovor, insofga loyiq va shafqatga haqli deb bilmaymiz. Bizda xotinlarni so‘kish faxr va g‘urur sanaladi, urib mayib qilishni esa erkakchilikning fazilati deb bilamiz. Alloh ayolni faqat shaxvoniy orzularimiz va hayvoniy ehtiroslarimizni qondirish uchun yaratgan deb o‘ylaymiz. Go‘yo, Alloh ularga huquq, e’tibor va fikrlash fazilatini bermagandek...[3]

Fitratning mazkur fikrlarini tahlil etsak, xotin-qizlar bilan bog‘liq masalalarning anchayin og‘irligi o‘sha davrda ham mavjud bo‘lganligini bilib olishimiz mumkin.

Ayollar, avvalo ona ekanligi, ular farzand tarbiyasining bosh fundamentini belgilab berishlari yuqoridaq fikrlarda ham o‘z isbotini topdi. Lekin shunday bo‘lsada xotin-qizlarga bo‘lgan munosabatning buzilishi ko‘p holatlarda aynan oilalarda yuzaga keladi.

Aslida buyuk shaxslarning buyuklikka erishishlari ortida ham aynan ayolning ishtiroki haqida tarixiy manbalardan ma’lumotga egamiz. Xotin-qizlar ilmli, ziyoli shaxs sifatida kamolga yetsa albatta, uning avlodlari ham ilmili va ziyoli bo‘lishi shubxasizdir. Muqaddas dinimiz islomda ham “o‘g‘lingni o‘qitsak bir kishini ilmli qilgan bo‘lsan, qizingni o‘qitsak jamiyatni ilmli qilgan bo‘lsan” degan mazmundagi qarashlar mavjuddir. Bu ham bo‘lsa ayollarning ilmli bo‘lishi nafaqat o‘tmishda, bugungi kunimizda ham yuksak ahamiyat kasb etadi.

Mustaqillikka erishgan kunimizdan to shu kunga qadar yurtimizda xotin qizlarga munosabat ham davlat miqyosida ham jamiyat miqyosida dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib kelmoqda. Xotin-qizlar qo‘mitasining tuzilishi, va qator qonunlar va qarorlarning qabul qilinishi mazkur sohada amalga oshirilgan ishlarning debochasidir. Birinchi prezidentimiz I.A.Karimov tomonidan ham xotin-qizlarga ko‘plab imkoniyatlar va imtiyozlar berilgan edi. “Oqila, go‘zal ayollar o‘zlarining g‘amxo‘rligi, mexribonligi, qalbi daryoligi bilan oiladagi, qolaversa, butun jamiyatdagi muvozanatni, poklik, halollik, samimiyat va adolat muhitini saqlab turadilar” mazkur fikrlarda ham Islom Karimovning ayollarni jamiyatdagi o‘rniga nechog‘lik katta e’tibor berilganining isboti deyish mumkin.

Xotin-qizlar masalasining dolzarbli shundaki, ular jamiyatning eng faol qismi hisoblanadi. Ular jamiyat tarbiyachilari ekanligi ularga tom ma’nodagi imkoniyatlar va imtiyozlar berilishi kerakligini ko‘rsatadi.

Bu imkoniyatlar sog‘liqni saqlash, ta’lim, iqtisodiyot va yana ko‘plab sohalarda amalga oshirilib kelinmoqda. Bugungi kunda xotin-qizlarning reproduktiv salomatligi masalasi birlamchi o‘rinda turadi, chunki sog‘lom onadan sog‘lom farzand dunyoga keladi. Shuning uchun ham ayollarning salomatligi masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarilgan, albatta ijrosi masalasida kamchiliklar mavjudligi bu subyektiv omillarning ta’siri ostida bo‘lmoqda.

Endi mavzuyimizning asosiy qismiga o‘tsak, dunyo bo‘ylab globallashuv jarayoni shiddat bilan kechayotgan bir vaqtda, uning ta’siri jamiyatning turli qismlariga, xususan oilaga, oilaviy munosabatlarda er-xotin va farzandlar munosabatiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda.

Oiladagi o‘zaro munosabatlarda va turmushda go‘zalikka e’tibor berish ham alohida ahamiyatga egadir. Agar ota-onalar va oiladagi kattalar o‘zaro munosabatlarida go‘zalikka e’tibor bersalar, oila muomilasida axillik, samimiyat, hurmat bo‘lsa, shu oilada tarbiyalanayotgan farzandlar hulqida yuqoridagi kabi axloqiy fazilatlar tarkib topib boradi. Demak, oiladagi estetik tarbiya ota-onalar va boshqa katta kishilarning o‘zaro to‘g‘ri munosabatidan boshlanishi kerak.[5]

Oilaviy munosabatlar ishtirokchilari bo‘lmish erkak va ayol munosabatlari shu oilaning tarkibiy qismini tashkil etadi. Albatta bu munosabatlar turli xil omillar ta’sirida shakllanadi,

- ***Ijtimoiy-psixologik omil;***
- ***Diniy va milliy qadriyatlar asosidagi omil;***
- ***Fiziologik omil;***
- ***Iqtisodiy omil;***

Mazkur keltirilgan omillar oilaviy munsabatlarni shakllantiruvchi va asosiy ta’sir etuvchi omillar hisoblanadi. Ijtimoiy-psixologik omil deganda biz, erkak va ayolning jamiyatdagi o‘rni, ijtimoiy-psixologik holati, harakteri va ijtimoiy muhit nazarda tutamiz. Oilada bo‘layotgan har bir

jarayon albatta ijtimoiy-psixologik omillar natijasida rivojlanadi. Albatta oilalarning mustahkamligi va to‘laqonli shakllanishida ijtimoiy-psixologik omil juda katta o‘ringa ega.

Oilalarda nosog‘lom psixologik muhitning mavjudligi oilaviy munosabatlar nohushligi, oilaviy ajrashishlar, ota-onalardan biri yo‘qligi, oilaviy tarbiyatagi yo‘l qo‘yilayotgan nuqsonlar hamda oilaning tarbiyaviy ta’siriga ega emasligi holatlari bolalar va o‘smyrlarda jinoyatchilik hulqining kelib chiqishiga ta’sir ko‘rsatadi.[5]

Demak oilalarda ota-onaning nosog‘lom psixologik holati nafaqat oilaning buzilishiga, balki shu oilada shakllanayotgan farzandning ham tarbiyasiga o‘zning salbiy ta’sirini ko‘rsatadi. Bugungi kunda alamzadalik kayfiyat, ayollarga ko‘rsatilayotgan noto‘g‘ri munosabat, kelajakda farzandning ham tarbiyasi, uning ijtimoiy-psixologik holatiga salbiy ta’sir etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Oilalarda nosog‘lom munosabatlar, qaynona-kelin, er-xotin o‘rtasidagi janjallar, xotin-qizlarimiz orasida o‘z joniga qasd qilish holatlari borligi shaxsan meni qattiq iztirobga solmoqda”[2], degan fikrlarida ham aynan bugungi kunda jamiyatning asosiy bo‘g‘ini hisoblangan oilaning noto‘g‘ri shakllanishi qanchalik dolzarb ahamiyatga egaligini ko‘rsatadi.

Xotin-qizlarga nisbatan munosabatni to‘g‘ri shakllantirmas ekanmiz, uning natijasida yuzaga keladigan muammolarni ham hal eta olmaymiz. Jins erkak va ayollar o‘rtasidagi universal biologik farq bo‘lib, anatomik va fiziologik mohiyatni,ya’ni, individning biologik jinsiga – erkak yoki ayol jinsiga mansubligini aniqlash uchun asos bo‘ladigan biologik belgilar birligidir.[6]

Ta’kidlanganidek, erkaklar va ayollar o‘rtasidagi biologik, tabiiy farqlar bilan erkaklar va ayollarning xatti-harakatini, ijtimoiy va madaniy harakteristikalarini aniqroq farqlash uchun gender atamasi qabul qilingan. Gender tushunchasining kiritilishi eng umumiy ma’noda ikki tushuncha – biologik va ijtimoiy jins tushunchalarini farqlash uchun gender atamasi qabul qilingan. Gender tushunchasining kiritilishi eng umumiy ma’noda ikki tushuncha – ***biologik va ijtimoiy jins*** tushunchalarini farqlashga yordam beradi. Gender (inglizcha gender – “zot” dan) jins tushunchasini fiziologik voqelik ustqurmasi bo‘lgan ijtimoiy konstruksiya sifatida belgilaydi.[7]

Gender-bu bevosita erkak va ayollarning o‘ziga xos xususiyatlari va jamiyatdagi rollarini o‘zida mujassamlashtiruvchi ilmiy tushuncha ekan. Uning mohiyati va mazmunini tahlil etar ekanmiz biz jinslararo munosabatlarning qanday tarkib topganligi va bu borada qilinayotgan nazariy va amaliy ishlar to‘g‘risida ma’lumotga ega bo‘lamiz. Erkaklar va ayollar jismonan farqlansalarda, ularning ijtimoiy, huquqiy va siyosiy-iqtisodiy sohadagi o‘rinlari albatta teng va uzviy bo‘lishi kerakligi nazarda tutiladi.

Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini belgilashda biz erkaklarni huquqiy maqomini cheklashimiz yoki ularni bir-biriga mutloq qarshi qo‘yishimiz noto‘g‘ri. Aksincha ular o‘rtasidagi munosabatlarni to‘g‘ri izchillashtirishimiz, ayollar bilan bog‘liq muammolarning yuzaga kelishiga asosiy sabab

nimalardan iborat ekanligini aniqlashimiz lozim. Negaki bu masala va bu boradagi izlanishlar juda nozik va o‘z o‘rnida dolzARB masala hisoblanadi.

Endi esa O‘zbekistonda xotin-qizlarga nisbatan zo‘ravonlik yoki boshqa salbiy ta’sirlarga qarshi amalga oshirilgan ishlar bilan qisqacha tanishamiz. So‘nggi yillard ayollar tadbirkorligi, tashabbuslari qo‘llab-quvvatlanib , xotin-qizlar bandligi va ularni kasb-hunarga o‘qitish, ijtimoiy himoyaga muhtoj qizlarga davlat grantlari ajratish, ularning muammolarini o‘rganish va manilli hal etish borasida amaliy ishlar olib borilib, “Ayollar daftari”ga 9 ta mezon asosida 433 ming nafar xotin-qiz kiritilib, ko‘philiginining muammolari hal etib kelinmoqda. Shu bilan bir qatorda, jamiyatda xotin-qizlarning o‘z o‘rnini topishiga to‘sinqilik qilib kelayotgan muammo va illatlar ham mavjud bo‘lib, ularga qarshi kurashish dolzARB ahamiyatkasb etmoqda. Ulardan biri xotin-qizlar va bolalarga nisbatan ko‘rsatiladigan tazyiq va zo‘ravonliklardir. “Mazkur illat va muammoga qarshi kurashish o‘ziga xos xususiyat va ahamiyat kasb etadiki, ushbu muammoga qarshi kurashishda butun jahonhamjamiyatining ishtiroki kengayib bormoqda. Jumladan, BMT Bosh Assambleyasi 2000-yilda har yili 25-noyabrni Xalqaro xotin-qizlarga nisbatan zo‘ravonliklarga barham berish kuni sifatida nishonlash to‘g‘risida rezolyutsiya qabul qilgan. An’anaga binoan har yili 25-noyabr kuni “Gender zo‘ravonliklariga qarshi faol 16 kun’ deb nomlangan kompaniyaga start berilib, bu kompaniya Xalqaro inson huquqlari kuni nishonlanadigan 10-dekabrda yakunlanadi. Bosh Assambleya rezolyutsiyasida jahon mamlakatlari hukumatlari, BMT tizimidagi tashkilotlar, xalqaro va nohukumat tashkilotlarga murojaat qilib, shu kuni xotin-qizlarga qarshi zo‘ravonliklar bilan bog‘liq muammolarga e’tibor qaratish tavsiya qilib kelinmoqda. Ushbu sana munosabati bilan har yili BMT Bosh kotibi murojaat bilan chiqiqb, xotin-qizlarga nisbatan zo‘ravonliklar jahon bo‘ylab keng tarqalib borayotganiga alohida e’tibor qaratib va bu muammoni bartaraf qilish borasidagi birgalikda ishslashga chaqiradi.[8]

Xotin-qizlar bog‘liq barcha masalalar bugun jahon miqyosida o‘rganilmoqda va yuzaga kelayotgan muammolarga yechimlar berilmoqda. Ammo shuncha amaliy va nazariy harakatlar amalga oshirilayotgan bo‘lsada, muammolar mavjud va zo‘ravonliklar natijasida ko‘plab ayollar aziyat chekishmoqda.

“Statistik ma’lumotlar tahliliga ko‘ra, so‘nggi yillarda mamlakatimizda jinoyatchilikning umumiyo ko‘rsatkichlari pasayishiga erishilganiga qaramasdan, ayrim og‘ir hududlarda oila-turmush sohasidagi jinoyatlarning ko‘rsatkichi oshganligi hamda ayrim turdagji jinoyatlarning sodir etilishi kuzatilmoqda. Oilaviy-maishiy turmush sohasida qasddan odam o‘ldirish va unga suiqasd qilish jinoyatlarining 2016-2020 yillar mobaynida sodir etilishi holati o‘rganilganda, 2016-yilga nisbatan 2017-yilda 34,8%ga oshgan bo‘lsa, 2017-yilga nisbatan 2018-yilda 16,8%ga, 2018-yilga nisbatan 2019-yilda 12,6%ga kamayganbo‘lsa, 2019-yilga nisbatan 2020-yilda 11,2% oshib ketishiga yo‘l qo‘yilganligi aniqlandi.

Tahlillarga ko‘ra, bugungi kunda jinoyatchilikning salbiy oqibatlari jamiyatning barcha sohalariga, shu jumladan, oila-turmush sharoitiga o‘zining jiddiy ta’sirini ko‘rsatib kelmoqda. Xususan, oila-turmush sohasida sodir etilgan qasddan odam o‘ldirish jinoyatlarining har uchtasidan bittasi aynan oila sharoitida sodir etiladi.[9]

Umuman xotin-qizlar hayotini yaxshilash va kelajakka bo‘lgan ishonch hissini shakllantirish uchun xotin-qizlarimiz o‘z ustilarida ishlashlari, ilmlarini rivojlantirishlari lozim. Haqiqiy ilm sohibasi bo‘lish uchun albatta oliv ma’lumotga ega bo‘lishi kerak degan qarash no‘to‘g‘ridir, chunki inson dunyoqarashini shakllantirish uchun u avvalo o‘z ustida mustaqil ishlashi va ma’lum maqsadga ega bo‘lishi lozim. Xotin-qizlarning keng dunyoqarashli va ilmli qilish uchun butun jamiyat harakat qilishi va kerakli shart-sharoitlarni yaratish juda muhimdir.

Xotin-qizlarning zamonaviy jamiyat bilan yanada kengroq tanishtirish, ularni alohidalash emas, balki umume’tirof etilgan normalarga tayangan holda huquqiy, iqtisodiy, siyosiy bilimlarini rivojlantirib borish lozim. Ularga bugungi kunda berilayotgan imkoniyatlardan to‘g‘ri foydalanish malakasini shakllantirishimiz, buning uchun esa joylarga borib o‘rganishni aynan shu soha vakillariga topshirish, ularning ma’suliyatini oshirish maqsadga muvofiqdir.

Biz zamonaviy jamiyat, uning umummiliy demokratik prinsiplar asosida shakllanganligi, berilayotgaan imkoniyatlar to‘g‘risida ko‘p bora gapiryapmiz va nazariyalar yaratyapmiz. Ammo, ularning ijrosi qanday ketayotganligi, xotin-qizlarda nima sababdan ijtimoiy-maishiy, iqtisodiy muammolar barham topmayotganini tahlil etishimiz va masalaning asl sababini topishimiz zarur. Chunki bugun ayollar turli omillar ta’sirida o‘zlarining asliyatlarini, hayotdagi maqsadlarini va qarashlarini unutib qo‘yishmoqda yoki inkor etishmoqda. Aslida qanday edi va qanday bo‘lmog‘I lozimligini ularga to‘g‘ri tushuntirishimiz lozim.

Biz yuqoridaagi fikrlarimizda oilaviy munosabatlarga ta’sir etuvchi omillarga to‘xtalib o‘tgan edik, aynan ulardan yana biri diniy va milliy qadriyatlar asosidagi omil va u ham o‘z ta’siri doirasida munosabatlarni salbiy yoki ijobjiy tarafga yo‘naltiruvchi omillar qatoriga kiradi. Agar ular to‘g‘ri yo‘naltirilgan bo‘lsa asosan ijobjiy harakterga egadir. Bilamizki, din insonning ishonchi, e’tiqodi demakdir. U jamiyat bilan uzviy tushuncha va jamiyatdagi munosabatlar tizimini isloh etib turuvchi va muvofiqlashtiruvchi omil hisoblanadi. Diniy va milliy qadriyatlar negizida insoniyatning axloqiy normalari, ma’naviy o‘zligi shakllanadi. Agar diniy-milliy qadriyatlarda me’yorga rioya etilmasa u jamiyatni mutaassiblikka tomon yetaklashi ham mumkin. Shuning uchun ham din – insonning eng nozik va ajralmas qismi hisoblanadi va u insonlarni yaxshilikka yo‘naltirishi lozim.

Oilaviy munosabatlar, undagi er-xotin va farzandlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar ham diniy-milliy qadriyatlar asosida shakllanadi. Diniy marosimlar, urf-odatlar, qadriyatlar shular jumlasidandir. Diniy-milliy qadriyatlar bugungi zamonaviy hayotimizda qanchalik o‘ringa ega bo‘lmoqda, xotin-qizlar va ularning faoliyati, borasida dinda qanday yo‘l-yo‘riqlar keltirilgan.

“Ayollarga islam dinida yuksak hurmat va e’tibor bilan qaraladi. Islam dinining muqaddas manbasi Qur’oni Karimda 35 ta sura va 102 ta oyatida “Ayol” so‘zining ishlatalishi, suralardan biri aynan “Niso” – ya’ni, “Ayollar” deb nomlanishi, unda ayol mavqeい, uning hayotdagi o‘rni, haq-huquqlari batafsil bayon etilishi islam dinida ayollarga e’tiborning yorqin ifodasıdir.

Sharq ayoli, xususan o‘zbek ayolining shaklu-shamoyili, siyrati, ma’naviy olamining shakllanishida islam dinning ta’siri beqiyos. Oila boshlig‘i bo‘lgan erkakka hurmat, sharm-hayo, andisha, itoatkorlik, sabr va matonat barcha davrlarda o‘zbek ayolining muhim hislati sanalgan.[10]

Xuddi shuningdek, boshqa dinlar ham o‘z e’tiqodiy qarashalari bilan oilaviy munosabatlар tizmiga va ota-onा munosabatlarining izchilligiga, ularning farzandlar bilan bog‘liq masalalariga juda katta ta’sir ko‘rsatadi. Buni biz oiladagi axloqiy normalarning namoyon bo‘lishida ko‘rishimiz mumkin.

Diniy va milliy qadriyatlar omili juda murakkab va ayni paytda eng ta’sir ko‘lami keng omil hisoblanadi. Chunki ayrim insonlar asli diniy ilmi juda yuqori bo‘lmasa ham, aynan dinda ayollarni o‘rni va majburiyatları to‘g‘risida o‘zlarining yuzaki bilimlariga tayanib xatoliklarga yo‘l qo‘ymoqdalar, aslida din hech qachon insoning zalolatga yoki qiynalishiga buyurmaydi, aksincha unga yengilliklar beradi.

Islam ma’rifatini, shariat qoidalarini, islam fiqhini to‘liq bilmasdan turib diniy qadriyatlarga ergashish, bugungi kunda jamiyatimizda ko‘plab muammolarni, ayniqsa oiladagi er-xotin masalalarini chigallashishiga sabab bo‘lmoqda

Aslida islamda oila eng nozik masala ekanligi, nikoh va er-xotin munosabatlari juda chiroyli qilib tushuntirib berilgan. Ayniqsa ayollar masalasida islam dini mukammal hukmlarni berdi.

Xotin-qizlarning ijtimoiy hayotga bolalikdan tayyorlab borish va buni oilada amalga oshirish lozim. Chunki ko‘pgina oilalarda milliy va diniy qadriyatlarga asoslangan bo‘lsada, oiladagi jinslararo tarbiyada juda ko‘p xatoliklarga yo‘l qo‘yadilar. Masalan, milliy qadriyatlar asosida shakllangan oilalarda qiz farzandga bo‘lgan munosabat juda qattiq va taqiqlardan iborat ekanligi, bu taqiqlar uning qiz bola ekanidan kelib chiqilishi kelgusida xotin-qizlarning o‘zini mustaqil shaxs sifatida ko‘ra olmasligiga va bu boshqa ijtimoiy muammolarga duch kelishiga sabab bo‘ladi. Ko‘pgina oilalarda faqat o‘g‘il farzandga munosabat kuchliroq, uning kelajagi uchun ko‘proq e’tibor qaratiladi, qiz farzandlarga esa ko‘proq uy ishlari yoki kelgusida faqat oila bilan bog‘liq masalalar to‘g‘risida tushuncha beriladi va o‘rgatiladi. Aslida o‘g‘il farzandlarga ham oila bilan bog‘liq masalalarini o‘rgatish, ularni ham birdek oilaga tayyorlash lozim. Axir oila masalasi er-xotin munosabatlari asosida quriladi. Ammo, erkaklarda bolalikdan oilada o‘z o‘rnini yuqori hisoblash va qarama qarshi jinsga nibatan past nazar bilan qarash, oiladagi tarbiyaga bo‘g‘liq holda rivojlanmoqda. Bunday tarbiyaviy tizim natijasida gender tengsizlik, gender zo‘ravonlik yuzaga kelishi mumkin. Shu kabi holatlarni bartaraf etish uchun tarbiyani to‘g‘ri shakllantirish, ularning aqliy va jismoniy

salohiyatini hisobga olish lozim. Albatta, tarbiyaviy jarayonda milliy va diniy qadriyalarni to‘g‘ri singdirish lozim.

XULOSA

Mazkur maqolaga xulosa qilar ekanmiz, biz unda butun bir jamiyatdagi shaxslarni, aynan, xotin-qizlarning faoliyatini izchillashtirishga va ularning jinsiga qarshi bo‘layotgan zo‘ravonliklar va tazyiqlarni bartaraf etishni maqsad qildik.

Xotin-qizlar masalasi bugun paydo bo‘lgan masala emas, uning o‘z rivojlanish tarixi mavjuddir. Biz tahlillarda asosan har bir davrdagi qarashlarni o‘rganishga e’tibor qaratdik. Demakki, xotin-qizlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ularni jismoniy va ma’naviy tazyiqlardan himoya qilish har tomonlama muhimdir. Bugun biz globalizatsiya davrida yashayapmiz va bu jarayon jahonda bor barcha masalalarni o‘z ichiga qamrab olmoqda. Shunday ekan ijobiy qarashlar bilan bir qatorda salbiy axborotlar, qarashlar shiddat bilan hayotimizga kirib kelmoqda. Gender tenglik maslasi ham qaysidir jamiyat vakillari uchun erish tuyulsada, aslida u o‘zida juda katta masalani qamrab oladi. Xotin-qizlarni jamiyatda o‘z o‘rniga ega bo‘lish masalasi bu kichik holat emas, uning zamirida biz ayollarni qo‘llab quvvatlashimiz, ularga yetarli shart-sharoitlarni yaratishimiz, ularni salbiy holatlardan himoya qilishimizning o‘zi kelgusi vujudga keluvchi namuanli oilalarni ham vujudga kelishiga, ham ma’nan ham jismonan yetuk farzandlarni dunyoga kelishiga zamin yaratadi. Biz oilaviy munosabatlar va unda xotin-qizlarning roliga to‘xtaldik. Oilaviy munosabatlar deganda, oiladagi deyarli barcha munosabatlar kiradi, er-xotin munoasabati, ota-onasi va farzand munosabati, qarindoshlar o‘rtasidagi munosabatlar shular jumlasidandir. Oilaviy munosabatlar turli xil bo‘lishiga qaramasdan, ular quyidagi xususiyatlari egadir:

- *Tomonlar o‘rtasida kuchli hissiy aloqa;*
- *Boshqa shaxslarni oilaviy nizolarga aralashtirmaslikka intilish;*
- *Tomonlarning kuchli shaxsiy kechinmalari;*
- *Nizoning yuqori emotsionalligi;*
- *Nizo oqibatlarining ishtirokchilari bo‘lgan tomonlari ayniqsa, farzandlar shaxsiy hayotiga ta’siri kabilarni o‘z ichiga oladi.*

Yuqoridagi oilaviy munosabatlarning xususiyatlari zamirida nizolar va ularni bartaraf etish shart-sharoitlari yotadi. Jamiyatda shuncha o‘zgarishlar va rivojlanishlar, inson ongingin yuksalishi, texnika-texnologiya asri bo‘lishiga qaramasdan bizda shaxslararo munosabatlarida hali hanuz muammolar mavjuddir va ular ijtimoiy hayotni kemirib bormoqda. Insonlar oila bo‘lib yashashni murakkab jarayon ekaniga to‘xtalishmoqda. Erkaklar va yaollar munosabatida tashqi ta’sirlar kuchli ta’sir etmoqda. Bu esa ularni oila bo‘lib yashashdan uzoqlashishiga va hudbinlashuviga sabab bo‘lmoqda. Bundan tashqari oilaviy munosabatlarda er-xotinning o‘zaro nizoli holatlarga yo‘l qo‘yishlari, ularning bir-biriga zo‘ravonlik harakatlarini amalga oshirishlari, xotin-qizlarning

huquqlariga hilof hatti*harakatlarni amalga oshirishlari, ularning ruhiy holatini izdan chiqishiga sabab bo‘lmoqda. Mazkur yuqoridagi jarayonlar jamiyatni ich-ichidan yemiradi, unda mavjud milliy-diniy qadriyatlarimizning yo‘qolib ketishiga, oilaning inson hayotidagi eng oliv qadriyat ekani o‘z mazmunini yo‘qotishiga olib keladi. Bu kabi holatlarni bartaraf etish mexanizmlari bugungi kunda shakllantirilimoqda, quyidagi takliflar shular jumlasidandir:

- *Xotin-qizlarni ijtimoiylashuviga ko‘maklashish;*
- *Ta’lim muassasalari faoliyatini yanada kengaytirish, xotin-qizlarni to‘laqonli ilm olishlariga erishish;*
- *Xotin-qizlarga ularning qiziqishlaridan kelib chiqib hayotiy tajribalarni o‘rgatish;*
- *Milliy-diniy qadriyatlarimizni xalqchil tilda yetkazish, murakkablashtirmaslik; oilaviy qadriyatlarni asrab –avaylash va bu borada amaliy ishlarni kuchaytirish;*
- *Er-xotinning shaxsiy munosabatlariga uchinchi shaxslar aralashuvni kamaytirish yoki umuman yo‘l qo‘ymaslik;*

Yuqoridagi takliflar asosan mamlakatimizda mavjud ijtimoiy muammolarni keltirib chiqarayotganligi tufayli ishlab chiqildi.

Xotin-qizlarni ijtimoiylashivi; Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda, xotin-qizlarni jamiyatda o‘z o‘rnini topa olishi uchun yetarli shart-sharoitlarni yaratish ko‘zda tutiladi. Xotin-qizlarni ijtimoiy tizimga jalb etish, bevosita ularning jamiyatda mavjud muammolar ta’siriga tushmaslikka, o‘zini shaxs sifatida rivojlantirishga yordam beradi.

Ta’lim muassasalari faoliyatini yanada kengaytirish, xotin-qizlarni to‘laqonli ilm olishlariga erishish; Mazkur taklif bugun o‘zining amaliy ahamiyatiga ega. Mamlakatimiz miqyosida ta’lim muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirilayotganligi, ta’lim-tarbiya jarayonida bugungi zamonaviy masalalarga yechim berishni ham qamrab olayotganligi maqsadga muvofiqli. Ayniqsa ikki yildan buyon oliy ta’limga kirish kvotasidan xotin-qizlarga berilayotgan imtiyozlar ham ularning bilim, malaka va ko‘nikmalarini oshirishga, shaxsiy rivojlanishlariga yana bir katta imkoniyatdir.

Xotin-qizlarga, ularning qiziqishlaridan kelib chiqib hayotiy tajribalarni o‘rgatish; Xotin-qizlarni hayotiy tajribalarni o‘rgatish va shaxsiy namunani shakllantirishdan iborat. Hayotiy tajribaning yetishmasligi xotin-qizlarning ijtimoiy hayotda qiyinchiliklarga duch kelishiga, ma’naviy va jinsiy zo‘ravonlikka uchrashiga sabab bo‘lmoqda. Mana shunday holatlarni keskin kamaytirish va umuman yo‘qotish uchun, Hayotiy va shaxsiy tajribasiga ega, namunali ayollardan iborat jaoma tuzilib ko‘makka muhtoj xotin-qizlar bilan ishlash, ularga ijobiy motivatsiyalar berish yaxshi natija beradi. Ammo bunday jamoani zo‘rama zo‘raki tuzish emas balki, haqiqattan shu ishni o‘zining maqsadiga aylantira olgan insonlarni jalb etish maqsadga muvofiqli. Bu jarayon murakkab ko‘rinsada, agar vazifaga sidqidildan yondoshilsa xotin-qizlar bilan bog‘liq ko‘ngilsiz holatlarni nisbatan bartaraf etishimiz mumkin.

Milliy-diniy qadriyatlarimizni xalqchil tilda yetkazish, murakkablashtirmaslik; oilaviy qadriyatlarni asrab –avaylash va bu borada amaliy ishlarni kuchaytirish

Mazkur taklif ham o‘zining amaliy ahamiyatiga ega. Hozirda ma’naviy sohani rivojlantirish, milliy-diniy qadriyatlarni murakkablashtirmsandan aholining talab-istiklari va qiziqishlariga mos ravishda yetkazish kerak. Negaki insonlarning hayoti juda murakkab uni yanada murakkablashtirish kerak emas. Aksincha ularga ijobiy motivatsiya beruvchi, bugungi kunda noyoblashib borayotgan sabr, toqat, insof, matonat kabi ma’naviy axloqiy tushunchalarni rivojlantirishimiz lozim. Shu jumladan, xotin-qizlarning ma’naviy olamini go‘zallashtirish, ularga o‘z hayotlarida faqatgina jismoniy mavjudlik va moddiy ehtiyojni qondirishgina emas, balki ma’rifatli bo‘lish, belgilangan maqsadga erishishni ham shakllantirish maqsadga muvofiqdir. Oilaviy qadriyatlarni asrab –avaylash globallashuv natijasida kirib kelayotgan “ommaviy madaniyat”ga qarshi kurashishda yaqindan yordam beradi. Ommaviy axborot vositalari, ta’lim-tarbiya muassasalari mazkur jarayonning ijrochi mexanizmidir. Ammo bugungi kunda virtual olamning ta’siri, ijtimoiy tarmoqlarning ommalashuvi, aholi orasida turli xil axborotlarning tarqalishiga sabab bo‘lmoqda. Bunday axborotlar ichida ijobiy axborotlardan tashqari salbiy axborotlar ham mavjud. Salbiy axborotlarning ta’siri natijasida azal-azaldan shakllanib, rivojlanib kelgan oilaviy qadriyatlarimizni yo‘qolib borishiga olib keladi. Oilaviy qadriyatlarni asrash va klegusi avlodga yetkazish muhim ishlardan biri aslida. Bugungi kunda Oila va xotin qizlar ilmiy tadqiqot institute, Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi faoliyati ham shu masalalarni o‘rganishga, bog‘liq muammolarni bartaraf etish chora-tadbirlaini amalga oshirmoqdalar. Oilaviy qadriyatlarni yo‘qolishi oilada va jamiytda ma’naviy va jismoniy zo‘ravonliklar, milliy o‘zligimizga tog‘ri kelmaydigan yod g‘oyalarning ta’sirini kuchaytiradi.

Xulosa qilsak bugungi zamonaviy jamiyatda oilaviy munosabatlarni yaxshilash, mustahkamligini ta'minlash, xotin-qizlarning qadr-qimmatini oshirish, il-ma'rifatga yo'naltirish asosiy masalalardan birini tashkil etadi. Shunday ekan masalalarni faqatgina qog'ozda emas amaliyotda ham qo'llay bilish zarurdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Sh.M.Mirziyoyev “Taqnidiy tahlil,qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik -har bir rahbar faoliyatiningkundalik qoidasibo‘lishi kerak”- T: “O‘zbekiston” 2017.
 2. Sh.M.Mirziyoyev “Vatanimiz taqdiri va kelajagi yo‘lida yanada hamjihat bo‘lib, qat’iyat bilan harakat qilaylik”// Xalq so‘zi.- T., 2017 yil. 16 iyun.
 3. Abdurauf Fitrat “Tanlangan asarlar”. Ma’naviyat – T.:2006. B. 240.
 4. N.M. Egamberdiyeva, D.A.Mahmudova. “Oila ko‘zgusida baxt” ilmiy-ommabop risola. Fan.: Toshkent – 2021. B. 31.
 5. Umarov B.M. Oilaviy tarbiya saboqlari.Ilmiy-uslubiy qo‘llanma.- Toshkent.: OOO “NORI” MCHJ, 2019, B 8

6. Здравомыслова Е.А., Темкина А.А. Социальное конструирование гендерса// Возможности использования качественной методологии в гендерных исследованиях МЦГИ, 2001.
7. Gender munosabatlari nazariyasi va amaliyotiga kirish. Ilmiy maqolalar to‘plami., D.Alimjonova ., T.: 2007. B 33.
8. Xotin-qizlar va bolalarga nisbatan zo‘ravonlikning oldini olish. Uslubiy qo‘llanma., O‘z Res Fanlar akademiyasi “Fan”., T.:2021, B 5.
9. Oila-turmush doirasidagi huquqbuzarliklarning oldini olish uslublari – uslubiy qo‘llanma., “Mahalla va oila nashriyoti” –T.: 2021. B 6.
10. F.Akramova, S. Sherxonov. Ayollarga diniy va psixologik maslahatlar: ilmiy-uslubiy qo‘llanma. – T.: “ROIAM” 2016, 20 b.